

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI.

Shokirova-Inomjonova

Mashxuraxon G'ayratjon qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrası o'qituvchi
yordamchisi (o'quv ishlari bo'yicha assistent)
e-mail: mashhurainomjonova2002@gmail.com.*

Annotatsiya: *ijtimoiy himoya tizimi fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar, subsidiya va imtiyozlar jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga qaratilgan. Mazkur maqolada mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy himoya, reestr, ijtimoiy tenglik, imtiyoz, preferensiya, ijtimoiy xizmat.*

I.Kirish

Avvalo shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy tenglikni ta'minlash davlatning ijtimoiy funksiyalaridan biri hisoblanib, ijtimoiy funksiyalar – aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, insonlarga munosib turmush tarzini yaratish, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash, va madaniyatni rivojlantirish kabilar kiradi. [1] Demokratiya hukmron bo'lgan jamiyatda davlat barcha fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini, jamiyatning barcha a'zolari uchun munosib shart-sharoitlar yaratishni kafolatlaydi.

Shu o'rinda ijtimoiy tenglik tushunchasiga atroflicha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Demak, ijtimoiy tenglik deganda, mamlakat hududidagi barcha fuqarolarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash jarayonini tushunish mumkin. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Imtiyoz va preferensiyalarning asosiy maqsadi turli ijtimoiy qatlamlar orasidagi farqni kamaytirish va barcha fuqarolar uchun teng sharoitlarni yaratishga qaratilgan desak adashmagan bo'lamiz.

Qayd etish joizki, imtiyozlar ko'p hollarda aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarga, masalan, kambag'al yoki nogironlarga beriladigan maxsus imkoniyatlar va huquqlar majmuidir. Xususan, davlat ijtimoiy tenglikni ta'minlashni quyidagi yo'llar orqali amalga oshiradi.

1. Ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish mexanizmi: Kambag'al oilalar farzandlari uchun davlat tomonidan imtiyozli davlat stipendiyalarining taqdim etilishi ushbu toifadagi shaxslarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshiradi.

2. Iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmi: tadbirkorlik faoliyatini boshlashda yoki ushbu faoliyatni kengaytirishda imtiyozli kreditlar va subsidiyalar taqdim etish ijtimoiy guruhlar orasidagi iqtisodiy farqni kamaytirishning maqbul yechimi bo'ladi.

3. Ijtimoiy himoya mexanizmi: Nogironlar yoki pensiya oluvchi shaxslar uchun ajratilgan ijtimoiy imtiyozlar, ularning hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish imkonini beradi.

II. Material va metodlar.

Mazkur maqolada bashoratli tahlil va statistik tadqiqot, kuzatish va tajriba metodlaridan samarali foydalanilgan bo'lib, ushbu metodlar mavzuni atroflicha yoritishga va foydali natijalar olishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tendensiyalarni o'rganish natijasida ehtimoliy kelajakni ilmiy jihatdan prognoz qilishga asoslangan forsayt tahlil metodi yordamida ijobiy natijaga erishilgan.

III. Natijalar.

Janubiy Koreya Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan: "Barcha fuqarolar munosib hayot kechirish huquqiga ega". Shundan kelib chiqqan holda, Koreyaning "Ijtimoiy ta'minot to'g'risida"gi qonunida ijtimoiy ta'minotni "fuqarolarning hayot sifatini oshiradigan tizimlar" deb ta'riflaydi va ushbu tizimlarni uchta toifaga ajratadi[2]:

- ijtimoiy sug'urta,
- ijtimoiy davlat yordami (asosan pul o'tkazmalariga asoslangan)
- ijtimoiy xizmatlar.

Ijtimoiy sug'urta turlariga bandlik sug'urtasi va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan sug'urta kiradi. Ijtimoiy xizmatlar sirasiga esa "Care child Care support" ijtimoiy xizmatlari va nogironlar uchun faoliyatni qo'llab-quvvatlash shular jumlasidan.

Mamlakatimizda ham ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar va davlat dasturlari ishlab chiqilgan. Jumladan, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilingan bo'lib, unda quyidagi masalalar o'z aksini topgan:

- 2025-yil 1-yanvardan kambag'al oilalar farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinadi;
- 2025-2026 o'quv yilidan, kambag'al oilalar farzandlarining davlat OTM talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlari Davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi;

- 2025-yildan “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan kambag‘al oilalarning farzandlari uchun alohida kvotalar ajratiladi [3].

Bundan tashqari, “Xalq banki”, “Mikrokreditbank” ATBning biriktirilgan rahbarlari xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda:

- kambag‘al oilalarga noutbuk sotib olish uchun 5 yil muddatga 2 yil imtiyozli davr bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratiladi;

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qiymati 30 mln so‘mgacha bo‘lgan kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko‘chma do‘konlar (food truck), motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun 5 yil muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratiladi.[4]

IV. Xulosa.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirishning quyidagi muhim jihatlarini ajratib ko‘rsatishni lozim deb topdik:

1. Qonunchilikni takomillashtirish.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri qonunchilikni takomillashtirishdir. Ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni modernizatsiya qilish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon, fuqarolarni huquqiy himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta‘minlashning zaruriy sharti deyish mumkin.

2. Ijtimoiy xizmatlarni sifat jihatdan takomillashtirish.

Ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash ijtimoiy himoya tizimining muhim xususiyatlaridan biridir. Davlat tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar va imtiyozlarning samaradorligini oshirish uchun yangi dasturlar va mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimining yaratilganligi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi. Bu esa o‘z navbatida fuqarolar uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanish jarayonlarini osonlashtiradi va ularning sifatini yaxshilaydi. Ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish va yangi innovatsion dasturlar yaratish orqali davlat va xususiy sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ahamiyatlidir.

3. Tahliliy-monitoring va baholash tizimlari.

Ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini baholash uchun zaruriy bo‘lgan monitoring tizimlarini ishlab chiqish va takomillashtirish zaruriy shartdir. Ushbu jarayon ijtimoiy himoya sohasidagi dasturlarning natijalarini va ta‘sirini o‘rganish imkonini beradi, shuningdek mavjud muammolarni aniqlashga yordam beradi.

4. Ommaviy axborot vositalari va xabardorlik.

Ijtimoiy himoya tizimining ahamiyati haqida jamoatchilikni xabardor qilish va ma‘lumotlarni tarqatish ijtimoiy himoya jarayonining muvaffaqiyati uchun zarur

hisoblanadi. Jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolar o'z huquqlari, imkoniyatlari va mavjud ijtimoiy yordamlar haqida bilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

5. Xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga keng joriy qilish.

Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimini xalqaro darajada tan olingan standartlar va tajribalar asosida takomillashtirishga harakat qilmoqda. Bunda, boshqa davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalaridan foydalangan holda, o'z sharoitlariga moslashtirilgan samarali yechimlar ishlab chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayoni ijtimoiy aholi o'rtasidagi adolatni ta'minlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, hamda ijtimoiy barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Qonunchilikni takomillashtirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, yangi samarali mexanizmlar yaratish va xalqaro tajribani o'rganish orqali ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali va adolatli bo'lishini ta'minlash mumkin. Bu jarayonlar O'zbekistonning ijtimoiy rivojlanishi va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'la oladi.

References

1. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent:TDYU, 2018. - 50 b
2. Social Security System of South Korea / Sunju Lee. p. cm. — (IDB Technical Note ; 872)
3. [https://kun.uz/news/2024/09/24/kambagal-oilalar-farzandlari-davlat-bogchalariga-
imtiyozli-asosda-qabul-qilinadi](https://kun.uz/news/2024/09/24/kambagal-oilalar-farzandlari-davlat-bogchalariga-imtiyozli-asosda-qabul-qilinadi)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-330-son